

# HUQUQIY MASLAHATXONA

---

...

**Savol:** Xodimning roziligesiz mehnat shartnomasini o'zgartirish mumkinmi?

**Savol muallifi "Borot" MFY, Orzu ko'chasida yashovchi Xurshida Rahmonova.**

**Ushbu savolga Qo'shtepa tumani Adliya bo'limi boshlig'i Anvarjon Xomidov javob beradi.**

**Javob:** Mehnat kodeksi 89-moddasiga muvofiq ish beruvchi xodimning roziligesiz mehnat shartlarini o'zgartirishga faqat texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarganligi, basharti bunday o'zgarishlar xodimlar soni yoki ishlar xususiyatining o'zgarishiga olib kelishi oldindan aniq bo'lgan hollardagina haqliligi belgilangan.

Shunga ko'ra ish beruvchi faqat yuqoridagi asoslar bo'lgandagina xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini uning roziligesiz o'zgartirishi mumkin xolos. Boshqa har qanday holatda ish beruvchi mehnat shartnomasini xodimning roziligi bilan o'zgartiradi.

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#),

2021-06-28 17:22:15